

Aholi

Date : 23 Iyun, 2015

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilning 1 aprel holatiga viloyatda doimiy aholi soni 779,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 2,4 ming kishiga yoki 0,3 foizga ko'paydi.

Aholining tabiiy o'sishi 2,8 ming kishini tashkil etdi. Ulardan 1,7 ming kishi qishloq joylariga to'g'ri keladi.

2015 yil yanvar-mart oylarida migratsiya saldosini, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra minus 0,1 ming kishini tashkil qildi.

Aholining tabiiy harakati 2015 yilning yanvar-mart oylarida quyidagicha ifodalanadi:

	Kishi		O'sish, kamayish (Q,-)	Har 1000 kishiga	
	2014 y	2015 y		2014 y	2015 y
Tug'ilganlar	3610	3639	29	19,1	19,0
O'lganlar	966	861	-105	5,1	4,5
Tabiiy o'sish	2644	2778	134	2,6	2,8

2015 yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 3,6 ming kishini tashkil qildi, tug'ilish koeffitsienti 2014 yilning shu davriga nisbatan 19,1 promilledan 19,0 promillega kamaydi.

2014 yilning shu davriga nisbatan o'lganlar soni 861 kishi yoki o'tgan yilga nisbatan 105 kishiga kamaydi.